



ISLOM TARIKSHUNOSLIGIDA SIYRAT JANRINING TUTGAN O'RNI

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Abdulxamidova Gulira'no Xaydarali qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada siyrat janri islom tarixshunosligining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni tahlil etilgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotiga oid siyrat asarlari islom tarixiy tafakkurining ilk manbalaridan biri sifatida baholangan. Maqolada siyrat janrining hadis, tafsir va tarix ilmlari bilan o'zaro aloqasi ochib berilgan. Shuningdek, siyrat janrining ilmiy tarixshunoslik metodologiyasiga ta'siri ham ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: siyrat, islom tarixshunosligi, manbashunoslik, payg'ambar hayoti, musulmon tarixchiligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль жанра сира в становлении и развитии исламской историографии. Биографии Пророка Мухаммада (с.а.в.) признаются одними из первых источников исторического мышления в исламе. Раскрыта взаимосвязь жанра сира с науками хадис, тафсир и исламской историографией. Также проанализировано влияние сира на научную методологию в изучении исламской истории.

Ключевые слова: сира, исламская историография, источниковедение, жизнь пророка, мусульманская историография.

Abstract: This article examines the role of the sīra genre in the formation and development of Islamic historiography. Biographies of the Prophet Muhammad (peace be upon him) are evaluated as foundational sources of Islamic historical thought. The article explores the interrelation between sīra, hadith, tafsir, and historical sciences, while also analyzing the methodological impact of sīra on Islamic historical scholarship.



Keywords: sira, Islamic historiography, source studies, Prophet's biography, Muslim historical thought.

Kirish (Introduction). Islom tarixshunosligi musulmon jamiyatlarining diniy, siyosiy va ijtimoiy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Bu tarixiy tafakkurda Muhammad (s.a.v.) hayotini o'rganishga qaratilgan siyrat janri alohida o'rin egallaydi. Ushbu maqolada siyrat janrining shakllanishi, asosiy manbalari va uning islom tarixiy tafakkuriga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Metodologiya (Methods). Tadqiqotda manbashunoslik va tarixiy tahlil uslublaridan foydalanildi. Asosiy diqqat siyrat asarlarining paydo bo'lishi, tarkibiy tuzilmasi, boshqa diniy-ilmiy janrlar bilan o'zaro aloqasi va tarixiy faktlarni yoritishdagi roli ustida jamlandi. Ibn Ishoq, Ibn Hishom, Tabariy kabi tarixchilarning siyratga oid asarlari asosiy manba sifatida tanlab olindi.

Natijalar (Results). Tadqiqot natijalari siyrat janrining islom tarixshunosligidagi o'rni nihoyatda muhim ekanligini ko'rsatadi. Avvalo, siyrat asarlari Muhammad (s.a.v.) hayotini yoritish orqali musulmon tarixiy tafakkurining ilk shaklini vujudga keltirgan. Ibn Ishoq va Ibn Hishamning siyratlari tarixiy tafakkurning dastlabki yozma namunalari hisoblanadi. Siyrat hadis va tafsir ilmlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, Qur'on oyatlari sabablarini tushunishda, hadislarni to'g'ri talqin etishda asosiy manba sifatida xizmat qilgan. Bu janr tarixiy voqealarni sabab-natija bog'liqligida yoritgani bilan ilmiy tarixshunoslikka xos yondashuvlarni ilgari surgan. Shuningdek, siyrat musulmon jamiyatining siyosiy, huquqiy va axloqiy hayotini tushunishda ham muhim manba bo'lgan. U diniy xotirani mustahkamlash va tarixiy ongni shakllantirishda katta rol o'ynagan.

Munozara (Discussion). Siyrat janrining islom tarixshunosligidagi o'rni keng qamrovli va ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat tarixiy ma'lumotlar to'plami, balki



diniy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hodisalarni o‘zida mujassam etgan kompleks adabiy-tarixiy hodisa sifatida qaraladi. Dastlab Muhammad (s.a.v.) hayotiga oid og‘zaki rivoyatlar asosida shakllangan siyrat, islom tarixining ilk bosqichlarida jamoaviy xotira va e’tiqodiy ongni mustahkamlovchi vosita bo‘lgan. Aynan shu bois, siyrat ilk musulmon jamoasi tomonidan diniy va tarixiy ma’lumotlarni uzatishda asosiy manba sifatida e’tirof etilgan. Siyratning paydo bo‘lishi bilan musulmonlar tarixga faqat ilohiy mo‘jizalar kontekstida emas, balki voqelikni ijtimoiy-siyosiy jarayonlar asosida anglashga harakat qila boshladilar. Siyratda Muhammad (s.a.v.) hayotining barcha bosqichlari – bolaligidan to vafotlariga qadar bo‘lgan davrlar – muayyan ijtimoiy kontekstda yoritiladi. Bu esa tarixiy ongning rivojlanishida sezilarli burilish yasagan. Shuningdek, siyrat janri musulmon tarixchiligi va adabiyotida uslubiy tajribaning shakllanishiga xizmat qilgan. Siyratlarda faqat voqealar ketma-ketligiga emas, balki ularning ma’naviy va axloqiy saboqlariga ham e’tibor qaratilgan. Bu holat tarixni faqat xronologik bayon qilish emas, balki uni tarbiyaviy vosita sifatida ham ko‘rishga olib kelgan. Shu jihatdan, siyratlar diniy-huquqiy me’yorlar, siyosiy qarorlar va ijtimoiy qadriyatlarning shakllanishi va targ‘ibotida muhim rol o‘ynagan.

Siyrat asarlarida ishlatilgan metodologiya – voqealarni ishonchli rivoyatlar asosida hikoya qilish, isnod tizimi orqali ularning haqiqiyligini tekshirish, shaxsiy guvohlar so‘zlariga tayangan holda voqealarni tasvirlash – keyinchalik umumiy islom tarixshunosligining asosiy tamoyillariga aylangan. Xususan, Tabariy, Balazuriy, Ibn Sa’d kabi tarixchilarning asarlarida bu metodologik tamoyillar yanada tizimlashtirilgan holda qo‘llanilgan. Bundan tashqari, siyrat asarlar orqali musulmon jamoasi o‘z tarixiy modelini yaratishga erishgan. Ular orqali musulmonlar Muhammad (s.a.v.) hayotini ideal namunaviy tarix sifatida qabul qilganlar va bu tarix asosida o‘z e’tiqodi, axloqi, siyosati va ijtimoiy munosabatlarini shakllantirganlar. Shu ma’noda, siyrat faqat o‘tmish voqealarini



hikoya qiluvchi matn emas, balki musulmon tafakkurining asosiy ideologik-axloqiy mezonlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Siyrat janrining zamonaviy islomshunoslikdagi roli ham e'tiborga loyiqdir. Ularning tanqidiy-nazariy tahlili, manbashunoslik nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqilishi islom tarixining ilmiy asoslarda qayta talqin qilinishiga xizmat qilmoqda. Bu jarayon zamonaviy musulmon jamiyatlarining o'z tarixiy ildizlariga yangicha qarashni talab etayotganini ko'rsatadi.

Xulosa (Conclusion). Yuqoridagi tahlillar asosida aytish mumkinki, siyrat janri islom tarixshunosligining shakllanishi va taraqqiyotida muhim nazariy va amaliy o'rin tutadi. Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) hayotini yorituvchi siyrat asarlari islom tafakkurining dastlabki tarixiy shakllanishi jarayonida manba, metod jihatidan beqiyos ahamiyatga ega bo'lgan. Bu asarlar orqali musulmon jamoasi o'zining diniy asoslarini tarixiy tajriba bilan mustahkamlashga, payg'ambar hayotini ideal namunaviy tarix sifatida idrok etishga erishgan.

Siyrat janri ilk islom tarix maktabini shakllantirgan bo'lib, u orqali hadis, tafsir, fiqh va tarix ilmlari o'rtasida o'zaro uzviy ilmiy integratsiya yuzaga kelgan. Xususan, tarixiy metodologiyaning ilk shakllari – isnod asosidagi ishonch tekshiruvi, sabab-natijaviy bog'liqlikda voqealarni tahlil qilish, shaxsiy guvohlik va kontekstual izoh kabi yondashuvlar siyrat janri doirasida takomillashgan. Bu metodologik tajriba keyinchalik islom tarixshunosligining asosiy uslubiy mezonlariga aylangan. Bundan tashqari, siyrat faqat tarixiy voqealar to'plami emas, balki ijtimoiy, axloqiy va siyosiy qadriyatlarning shakllanishi, musulmon ummatining ideologik va tarixiy o'zligini anglashida ham muhim vosita bo'lib xizmat qilgan. Siyrat janridagi asarlar orqali musulmonlar tarixga faqat voqealarning bayoni sifatida emas, balki axloqiy-ma'naviy saboqlarning manbai sifatida qaraganlar. Bu esa siyrat janrini diniy tarixiylik bilan birga tarbiyaviy va didaktik funksiyani ham o'zida mujassam etgan ko'p qatlamli adabiy-tarixiy meros sifatida qadrlashga olib kelgan.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibn Hishom, A. As-Siyrat an-Nabaviya (Siyratu Ibn Hishom). Qohira: Maktaba Mustafo al-Bobiy al-Halabiy, 1955.
2. Ibn Ishoq, M. As-Siyrat an-Nabaviya. Bayrut: Dor Ihyo at-Turos al-Arabiy, 2000.
3. Ibn Kasir, I. Al-Bidoya va an-Nihoya. Bayrut: Dor Ihyo at-Turos al-Arabiy, 1988.
4. Ibn Sa'd, M. Kitob at-Tabaqot al-Kabir. Bayrut: Dor Sodir, 1968.